Advances in Science and Humanities



Advances in Science and Humanities, 2026, 76–78

doi: 10.70728/human.v02.i03.019
Volume 02, Issue 03
ISSN: 3060-5393
Paper

PAPER

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI VA KUYLARINING O‘ZIGA XOS TOMONLARI

Sabirov Baxtiyor Akbaraliyevich [1,*]

[1] O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI “Bastakorlik san’ati” yo‘nalishi 1-bosqich magistr talabasi

* sabirov935@gmail.com

Abstract

O‘zbek xalq qo‘shiqlari o‘zining boy madaniy merosi, murakkab musiqiy strukturasi va teran hissiy mazmuni bilan alohida ajralib turadi. Mazkur asarlar xalqimiz o‘zligining yorqin ifodasi bo‘lib, o‘zida tarixiy rivoyatlar, ijtimoiy qadriyatlar va yuksak badiiy tafakkurni mujassam etadi. Maqolada o‘zbek xalq qo‘shiqlarining o‘ziga xos nazariy va amaliy xususiyatlari batafsil yoritilgan.

Key words: o‘zbek xalq musiqasi, xalq qo‘shiqlari, folklor, maqom san’ati, lad tizimi, usul va ritm, ijrochilik an’analari, milliy cholg‘ular, hududiy uslublar.

“Musiqa bor yurtda yuraklar jim emas.
Yuraklar jim bo‘lmasa – millat tirik.”
O.Matyoqubov, San’at va xalq qalbi. Toshkent, 2015. 2-bet.

Mazkur maqolada o‘zbek xalq qo‘shiqlari va kuylarining janriy tasnifi, lad-melodik tuzilishi, ritmik xususiyatlari hamda ijrochilik maktablari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, hududiy uslubiy farqlar va xalq musiqasining maqom san’ati bilan o‘zaro dialektik aloqasi masalalariga e’tibor qaratiladi. O‘zbek xalq musiqasining milliy dunyoqarash, estetik tamoyillar va tarixiy taraqqiyot jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asoslab beriladi.

O‘zbek mumtoz musiqa san’ati va o‘zbek xalq qo‘shiqlari va kuylari tarixan uzoq o‘tmish an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan. O‘zbek xalq qo‘shiqlari va mumtoz musiqa san’ati asrlar davomida sayqallanib rivoj topib, hozirda bizgacha yetib kelishida an’anaviy kasbiy musiqa vakillari bo‘lmish bastakor, xonanda va sozandalarning o‘rni beqiyosdir. Xususan, bu asosda bastakorlarimizning ahamiyati katta. Bastakorlik ijodi xususida musiqashunos olim T.G‘ofurbekov quyidagicha yozadi “Milliy bastakorlik san’ati – yillar va asrlargina emas balki ming yilliklar davomida barcha sinovlarga bardosh berib, usluban sanog‘i yo‘q musiqiy bitiklar tevaragida o‘z an’analarini yo‘qotmay kelmoqda” . Bastakorlar ijodi bugungi kunda

Compiled on: February 17, 2026.
Copyright:©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) 4.0 license.

o‘rganilishi yoritilishi dolzarb bo‘lgan mavzulardan biridir. Jumladan XX-XXI asr bastakorlik ijodi, ular yaratgan asarlar tahlili, uslubi, o‘ziga hos an’analarini yoritish kabi ishlar, bugungi kunga qadar musiqashunoslar, mumtoz musiqa san’ati vakillari tomonidan olib borilmoqda.

O‘zbek xalq musiqasi — asrlar davomida sayqallanib kelayotgan, xalqimizning ma’naviy olami, hayotiy falsafasi va tarixiy tajribasini o‘zida mujassam etgan benazir madaniy merosdir. Ushbu san’at turi nafaqat estetik zavq manbai, balki millatning ichki kechinmalari, ijtimoiy-maishiy hayoti va yuksak ideallarini ifodalovchi muhim ma’naviy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek musiqasining ijodiyoti yillar davomida turli janrlar bilan boyib kelgan. XX asrga kelib, bastakorlik an’analariga xos va jahon musiqa ijodiyoti namunalariga mos kompozitorlik ijodiyoti kirib keldi. Bu albatta o‘zining yangidan-yangi janrlari, ulami yaratish va ijro etish qonuniyatlari bilan bog‘liqdir. Kompozitorlik ijodiyoti bilan birga o‘zbek musiqasiga yevropa musiqiy an’analarida mavjud bo‘Igan opera, balet, simfoniya, kamer musiqa, cholg‘u musiqa kabi bir qator janrlarda ijod etish an’anasi kirib keldi.O‘tgan asr davomida bu an’ana o‘zbek musiqiy hayotida o‘z o‘rnini topdi. O‘zbek kompozitorlik maktabi shakillandi, yetuk kompozitorlar tarbiyalanib samarali ijod etdilar. Olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan musiqiy asarlar yaratdilar.

Bu jarayon ham o‘ziga xos shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o’taganini qayd etish lozimdir. Chunki, bu an’ana avvalo rus musiqashunos va kompozitorlari tomonidan boshlab berildi, so‘ngra milliy an’analami saqlash maqsadida, bastakorlar bilan kompozitorlaming hamkorlik davri ham o‘z mevasini berdi. 1930-yillarning oxiridan o‘zbek kompozitorlik ijodiyoti o‘zini ko‘rsata boshiadi va tez orada kompozitorlaming yangi avlodi tarbiyalandi. Eng muhimi kompozitorlikning barcha janrlarida o‘zbekona ohanglarga ega bo‘lgan milliy ruhdagi asarlar yaratilib, jahon sahnalarida o‘zini namoyon etib kelmoqda

O‘zbek musiqa madaniyati tarixan ikki asosiy tarmoqda rivojlanib kelgan: professional og‘zaki an’anadagi maqom san’ati hamda folklor ijodiyotiga mansub xalq qo‘shiqlari va kuylari. Xususan, o‘zbek musiqiy tafakkurining cho‘qqisi hisoblangan Shashmaqom tizimi xalq ohanglari bilan uzviy bog‘liqlikda shakllanib, o‘zaro boyish jarayonini bosib o‘tgan.

O‘zbek xalq qo‘shiqlari va kuylarining yaralishida shuni eslash joziki, Erkin Ro‘zimatov “Toshkent Irog‘i” ashulasiga talabalik davridan buyon mehr qo‘ygan bo‘lib, uni ustozlar ko‘magida qunt bilan o‘rganadi. Bu haqida bastakor “Xar bitta Mumtoz asarlarimizga, ustozlarni bastalagan asarlariga bo‘ladimi qaysi bir asarga bo‘lishidan qat’iy nazar, asarni asl o‘zini chuqur bilishingiz kerak, bastakor his qilishi kerak, asar qanaqa yaralgan, kimlar ijro qilgan, qanday avjlar qo‘shgan, shularni bilish kerak, g‘azaliyotni muhammas janrini oladigan bo‘lsak bir shoir muhammasiga bog‘lash uchun ikkinchi shoir ushbu muhammasni chuqur bilishi kerak ana shunda muhammas qila oladi, agar chuqur his qilib ich ichiga mohiyatiga kirmasa muhammas qila olmaydi.” “Toshkent Irog‘i” asarini bastakor uzoq vaqt davomida turkumlashtirishga xarakat qilgan ko‘plab mehnatlari sabab bugungi kunda “Toshkent Irog‘i II”, “Toshkent Irog‘i III” qismlarini barpo qiluvchi inson bo‘ldi.

Mazkur maqolaning maqsadi — o‘zbek xalq musiqiy merosining janriy xususiyatlarini, ularning strukturaviy tuzilishi va ijro uslublarini nazariy hamda amaliy jihatdan kompleks tahlil qilishdan iborat.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarining janriy tasnifi ularning badiiy mazmuni, ijro uslubi va ijtimoiy-funksional vazifasiga tayanadi. Mazkur mezonlarga ko‘ra, o‘zbek folklor musiqasini quyidagi asosiy turkumlarga ajratish mumkin:

Marosim qo‘shiqlari: Inson hayotidagi muhim bosqichlar va qadimiy marosimiy rituallar bilan uzviy bog‘liq. Ushbu turkumga oilaviy-maishiy marosimlar (masalan, “Yor-yor”, “O‘lan”, “Kelin salom”), mavsumiy-marosimiy qo‘shiqlar hamda lirik-dramatik xarakterdagi “Alla” va “Marsiya”lar kiradi. Marosim qo‘shiqlari xalqning qadimiy e’tiqodlari va ijtimoiy tartib-tamoyillarini o‘zida saqlab keladi.

Mehnat qo‘shiqlari: Bevosita xo‘jalik faoliyati (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik) jarayonida yuzaga kelgan. Masalan, “Qo‘sh qo‘shig‘i”, “Sust xotin”, “Charkh” kabi namunalar

mehnat ritmini tartibga solish, jamoaviy ruhni ko‘tarish va ish jarayonidagi ruhiy zo‘riqishni kamaytirishga xizmat qilgan.

Lirik qo‘shiqlar: Insonning ichki ruhiy olami, muhabbat va sadoqat, hijron va sog‘inch kabi universal tuyg‘ularni teran ifodalovchi janrdir. Ushbu qo‘shiqlar o‘zining keng nafasli ohangdorligi (melodizmi) hamda kuychanlik xususiyati bilan boshqa janrlardan ajralib turadi.

Tarixiy va qahramonlik qo‘shiqlari: Xalqning tarixiy xotirasi, milliy ozodlik yo‘lidagi kurashlari va alp obrazlarining jasoratini madh etuvchi asarlardir. Ular epik xarakterga ega bo‘lib, ko‘pincha dostonchilik an’analari bilan tutashib ketadi.

Lad-melodik xususiyatlar haqida ham aytadigan bo‘lsak, o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlari Sharq musiqa lad tizimiga asoslanadi. Ular diatonik va xromatik elementlarning o‘ziga xos uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Ko‘plab kuylar maqom ladlariga yaqin tuzilishga ega.

Xalq kuylarining aksariyati monodik (bir ovozli) xarakterga ega. Biroq ijro jarayonida bezaklar, melizmlar va improvizatsion elementlar keng qo‘llaniladi.

Ritmik xususiyatlar haqida aytadigan bo‘lsak, o‘zbek xalq musiqasida ritm muhim ifoda vositasidir. Oddiy 2/4, 3/4 o‘lchovlar bilan bir qatorda murakkab 5/8, 7/8 kabi usullar ham uchraydi. Ayniqsa, raqs kuylarida jo‘shqin va harakatchan ritmik tuzilmalar ustunlik qiladi.

Ijrochilik an’analari va milliy cholg‘ular haqida gapirar ekanmiz, o‘zbek xalq musiqasi og‘zaki an’ana asosida rivojlangan. Ustoz-shogird tizimi orqali kuy va qo‘shiqlar avloddan-avlodga o‘tgan. Ijro jarayonida improvizatsiya muhim o‘rin egallaydi.

Milliy cholg‘ular xalq kuylarining tembr boyligini ta’minlaydi:

dutor — lirizm va mayinlik; tanbur — nafis bezakdorlik; rubob — jozibali tembr; gijjak — cho‘ziluvchan kuychanlik; karnay-surnay — tantanavorlik.

Mashhur sozanda Yunus Rajabiy xalq kuylarini to‘plash va notaga tushirish orqali ularni ilmiy asosda o‘rganishga katta hissa qo‘shgan.

Hududiy uslubiy farqlar orasida shundaki, O‘zbek xalq musiqasi hududlarga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga egadir: Farg‘ona–Toshkent uslubi — lirizm va kuychanlik; Buxoro–Samarqand maktabi — maqom an’analariga yaqinlik; Xorazm uslubi — jo‘shqin ritm va keng diapazon; Surxondaryo–Qashqadaryo folklori — qadimiy ohanglar va epik xarakter.Bu xilma-xillik o‘zbek xalq musiqasining boy va rang-barang ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq qo‘shiqlari va kuylarining o‘ziga xosligi ularning janriy xilma-xilligi, lad-melodik boyligi, murakkab ritmik tuzilishi hamda improvizatsion ijrochilik an’analari bilan belgilanadi. Ular milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosni asrab-avaylash va professional musiqa san’atini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.Matyoqubov, San’at va xalq qalbi. Toshkent, 2015. 2-bet.
2. G‘ofurbekov T.B. Bastakorlik ijodiyoti tarixidan. // Saylanma T., 2009, 9-bet
3. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. o ‘zbck musiqasi tarixi. —T.: «Fan va texuologiya», 2018,204+12 bet
4. Erkin Ro’zimatov bilan 13.02.2025 yil yozib olingan suhbatdan.
5. Yunus Rajabiy. O‘zbek xalq musiqasi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1955.
6. Ilyos Akbarov. O‘zbek musiqasi tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 1987.
7. Fayzulla Karomatov. O‘zbek xalq musiqa merosi. Toshkent: Fan, 1978.
8. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “Musiqa san’ati” maqolasi. Toshkent, 2005.